



## TOVLAMACHILIK JINOYATINI OLDINI OLISH CHORA-TADBIRLARI

Narziyeva Hafiza Narimonovna

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi  
3-o'quv kursi 316-guruh kursanti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tovlamachilik jinoyatining oldini olish chora-tadbirlari jumladan, paydo bo'lishining asosiy omillari va sabablari, aniqlash obyekti, ushbu jinoyatning asosiy predmetlari hamda bugungi kunda olib borilayotgan muhim faoliyat jarayoni haqida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** tovlamachilik , chora-tadbirlar , tamoyil, obyekt, predmet, ma'muriy hudud , kriminogen vaziyat.

**Аннотация:** В данной статье изложены меры профилактики вымогательства ,в том числе основные факторы и причины его возникновения, объект выявления, основные субъекты данного преступления, а также важнейший процесс деятельности, осуществляемый на сегодняшний день.

**Ключевые слова:** вымогательство , меры , принцип, объект, предмет, административная территория , криминогенная ситуация.

**Annotation:** This article describes the measures to prevent the crime of extortion, including the main factors and reasons for its occurrence, the object of detection, the main objects of this crime, and the important process of activity carried out today.

**Key words :** extortion, measures, principle, object, subject, administrative area, criminal situation.

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli tizimli va xalqchil islohotlar zamirida bиринчи navbatda inson manfaatlarini himoya qilish, uning huquq va erkinliklarini qonuniy va adolatli ta'minlash asosiy vazifa sifatida amalga oshirilib kelinmoqda.

Qonun ustuvorligini ta'minlashning asosiy omili bu huquqbuzarliklar profilaktikasini samarali tashkil etish va huquqbuzarliklarning sabablari bilan kurashish emas, balki unga olib keluvchi shart-sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash va bartarf etishdan iboratdir. Shu munosabat bilan huquqbuzarliklar profilaktikasining asosiy subyektlari hisoblangan ichki ishlar organlarining profilaktika faoliyatini chuqur o'rganish va uni yanada takomillashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta'minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, jamoat xavfsizligini ta'minlash yo'nalihidagi ishlarni " Xalq manfaatlariga xizmat qilish" tamoyili asosida tashkil



## International scientific-online conference: INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS



etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o'zaro maqsadli hamkorligi yo'lga qo'yildi.<sup>30</sup>

Ma'muriy hududlarda huquqbazarliklar profilaktikasi inspektorlari tovlamachilik jinoyatini oldini olishda avvalo hududlarda fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga alohida e'tibor qaratmoqliklari har bir fuqaroning hayoti va taqdiri uchun huquqiy bilimlar zarurligi borasida doimiy profilaktik chora - tadbirlarini amalga oshirishlari va faoliyat olib borishlari darkor.

Jamiyatning huquqiy kamoloti mamlakat aholisining huquqiy savodxonlik darajasi bilan belgilanadi. Ijtimoiy faol va yuksak madaniyatli insonga xos bo'lgan fazilatlardan biri huquqiy madaniyatga ega bo'lishdir.

Prezidentimizning 2019-yil 9-yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni fuqarolarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasida dolzarb vazifalarni belgilab berdi. .<sup>31</sup>

Har bir fuqaro huquqiy bilimlarni tushunib o'zida singdirib targ'ibot ishlaridan xulosa chiqarib istiqomat qilsa, tovlamachilik , firibgarlik, o'g'rilik kabi jinoyatlar va boshqa turdag'i jinoyatlar albatta oldi olinadi bunda shubhasiz huquqiy ong madaniyatning o'rni muhim ahamiyat kasb etadi.<sup>32</sup>

Tovlamachilik jinoyatining oldini olishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish darkor :

- fuqarolar o'rtasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, huquqiy targ'ibotni amalga oshirish;

- hududlarda huquqbazarliklar profilaktikasining viktimologik profilaktika turini keng ko'lamli ravishda va tizimli hamda maqsadli tashkil etish;

- mahalla hududlarida jamoatchilik nazoratini kuchaytirish;

- g'ayriijtimoiy va huquqbazarlik sodir etishga moyil bo'lgan shaxslar o'rtasida tarbiyaviy va profilaktik suhbatlarni muntazam olib boorish mahalla "yettiliqi" ko'magida sog'lom turmush tarziga yo'naltirish;

- sohaviy xizmatlar bilan birgalikda kompleks tadbirlarni jumladan doimiy nazoratni hududlarda muntazam olib boorish;

- fuqarolarda axborot resurslari, uyali aloqa vositalari, internet tarmog'idan hamda zamonaviy pul o'tkazmalarini amalga oshiruvchi ilovalardan to'g'ri va ishonchli xizmatlar va

---

Aliyev Shuhrat Xasanovich –Buxoro viloyati IIB boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Phd). Huquqbazarliklar profilaktikasi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar; b-24. Murojaat vaqt: 21.10.2024-yil.

<sup>31</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9- yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" gi PF-5618-son Farmoni.

<sup>32</sup> Qarshiyev.G'.S., Bayjigitova.A.A., Fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish-davr talabi.



rasmiy qonuniy faoliyatini amalga oshiruvchi dasturlar haqida keng targ'ibot ishlarini amalga oshirish.

Huquqbazarliklar profilaktikasi inspektorlari ma'muriy hududlarda tovlamachilik jinoyatining barvaqt oldini olishda doimo sohaviy xizmatlar, jamoatchilik hamda mahalla "yettiligi" bilan birgalikda muntazam faoliyatlarini amalga oshirib borishlari lozim.

Ichki ishlar organlarining huquqbazarliklar profilaktikasi xizmatida amalga oshirilib kelinayotgan bosqichma - bosqich islohotlar o'zining samarali natijasini ko'rsatib kelmoqda , bugungi kunda ma'muriy hududlarda huquqbazarliklar profilaktikasi inspektorlariga huquqbazarliklarning jinoyatlarning oqibatlari emas, balki ularning barvaqt oldini olishga qaratilgan chora- tadbirlar, huquqbazarliklarning sodir etilishining sabab va shart-sharoitlari omillarni aniqlash, ularni bartaraf etish ustuvor vazifalar ekanligi belgilab berildi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, hududlarda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlashda fuqarolarning huquq va erkinliklarini va qonuniy manfaatlarini o'z vaqtida amalga oshirishda har qanday huquqbazarlikka qarshi kurashgandan ko'ra, ularning barvaqt oldini olish har tomonlama foydali ekanligi olib borilayotgan islohotlarning natijasida o'z samarasini ko'rsatib kelmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T: (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi).

<https://lex.uz/docs/6445145> . Murojaat vaqt : 20.10.2024-yil.

2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi. <https://lex.u/docs/111453>

Murojaat vaqt : 20.10.2024-yil.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9- yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" gi PF-5618-sон Farmoni.

. Murojaat vaqt : 20.10.2024-yil.

4. Aliyev Shuhrat Xasanovich -Buxoro viloyati IIB boshlig'I, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Phd).Huquqbazarliklar profilaktikasi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar;

b-24. Murojaat vaqt : 20.10.2024-yil.

5. Qarshiyev.G'S., Bayjigitova.A.A.,Fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish-davr talabi.

Murojaat vaqt : 20.10.2024-yil.

6. Otamurodov A.S . Huquqbazarliklarning barvaqt oldini olish – muhim masala;b-180. Murojaat vaqt : 20.10.2024-yil.